



Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-iyul holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 22 529 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Adliya vazirligi taqdim etgan rasmiy ma'lumotlar asosida tayyorlangan



Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-iyul holatiga, birlik	2026-yil 1-iyul holatiga, birlik
Angor tumani	1 191	1 153
Bandixon tumani	509	564
Boysun tumani	796	767
Denov tumani	2 512	2 507
Jarqo'rg'on tumani	1 652	1 688
Qumqo'rg'on tumani	1 381	1 411
Qiziriq tumani	872	1 009
Muzrabot tumani	867	874
Oltinsoy tumani	977	1 136
Sariosiyo tumani	1 070	1 149
Termiz tumani	1 533	1 548
Uzun tumani	944	997
Sherobod tumani	1 450	1 652
Sho'rchi tumani	1 382	1 376
Termiz sh.	3 917	4 698

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-iyunida 2 432 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026-yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 943 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 394 ta, sanoatda 285 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 243 tani tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni






Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Angor tumani	133	107
Bandixon tumani	68	67
Boysun tumani	47	53
Denov tumani	269	278
Jarqo'rg'on tumani	209	151
Qumqo'rg'on tumani	158	157
Qiziriq tumani	140	139
Muzrabot tumani	81	84
Oltinsoy tumani	153	212
Sariosiyo tumani	98	122
Termiz tumani	183	153
Uzun tumani	62	104
Sherobod tumani	121	232
Sho'rchi tumani	111	127
Termiz sh.	617	446

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 76,0 % ni tashkil qilib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan 1,5 punktga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 658,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 58,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 90,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bandixon tumani (100,0 %), Qiziriq tumani (98,0 %), Muzrabot tumani (97,6 %), Boysun tumani (92,1 %), Oltinsoy tumani (89,9 %), Uzun tumani (88,3 %) va Sho'rchi tumani (68,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6 865,0 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 86,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'tchi (98,4 %), Denov (96,6 %), Qumqo'rg'on (96,4 %), Boysun (96,1 %) va Termiz (94,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 12 559,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 63,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 174,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi (97,6 %), Uzun (97,6 %), Bandixon (96,7 %) va Qiziriq (85,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 21 248,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Bandixon (99,1 %), Jarqo'rg'on (99,0 %), Qiziriq (98,9 %), Sho'rchi (98,6 %) va Denov (98,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 15 100,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 94,8 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 118,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Boysun (99,3 %), Muzrabot (99,2 %), Denov (99,1 %) va Qiziriq (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 15 609,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 75,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 114,7 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bandixon (83,5 %), Qiziriq (82,0 %), Muzrabot (81,2 %), Oltinsoy (79,5 %) va Uzun (77,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 185,3 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 63,0 % ini tashkil etdi.

2026-yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Sariosiyo tumanida - 100,0 %, Jarqo'rg'on tumanida - 99,3 %, Angor tumanida - 99,2 %, va Qiziriq tumanida - 94,5 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-iyunida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 119,0 million AQSH dollarini yoki jami importning 60,5 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 99,4 %, Termiz shahri - 98,4 %, Uzun tumanida - 96,0 %, Jarqo'rg'on tumanida - 93,7 % va Oltinsoy tumanida - 89,3 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2026-yilning yanvar-iyunida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,3 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,3 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,9 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,7 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-iyunida 25,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunida esa 64,2 % ga yetgan yoki 2022-yilning yanvar-iyunida nisbatan 39,0 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning yanvar-iyunida 66,4 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunida 31,2 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning yanvar-iyunida 8,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 4,6 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-iyunida 43,3 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunida 68,5 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning yanvar-iyunida 51,9 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunida 30,5 % yoki 21,4 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning yanvar-iyunida 4,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich 1,0 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatda - 68,0 % ni, sanoatda - 66,2 % ni va savdoda - 63,1 % ni va va tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda - 33,5 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagida - 33,4 % va qurilishda - 32,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagida - 9,5 %, sanoatda - 4,9 % ni, qurilishda - 4,4 % va xizmatda - 4,1 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

A. Shoberdiyev
55 451-80-00 (1)

Manzil:

